

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
FARMONI
**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING AYRIM
HUJJATLARIGA O‘ZGARTIRISH VA QO‘SHIMCHALAR KIRITISH
TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son **Farmoniga** muvofiq aholini ichimlik suv va oqova suv xizmatlari bilan ta‘minlash uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga **ilovaga** muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

2. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2022-yil 24-may,
PF-140-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-maydagi PF-140-
son **Farmoniga**
ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan
o‘zgartirish va qo‘shimchalar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi “Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5017-son **Farmonida**:

a) **2-bandda**:

beshinchi xatboshidagi “xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari” so‘zlari “ko‘p kvartirali uylarni boshqarish organlari” so‘zlari bilan almashtirilsin;

quyidagi mazmundagi o‘n ikkinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“ichimlik suvining strategik zaxiralari yaratilishini ta‘minlash”;

b) 6-bandning **ikkinchi xatboshisidagi** “xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlariga” so‘zlari “ko‘p kvartirali uylarni boshqarish organlariga” so‘zlari bilan almashtirilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-noyabrdagi “Aholining ichimlik suvi bilan ta‘minlanganlik darajasini oshirish va uning sifatini yaxshilash uchun O‘zbekiston

Respublikasining suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5883-son [Farmonida](#):

a) [2-bandda](#):

[birinchi xatboshidagi](#) "Vazirlik" so'zi "O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi (keyingi o'rinlarda — Suv xo'jaligi vazirligi)" so'zlari bilan almashtirilsin;

[beshinchi xatboshi](#) chiqarib tashlansin;

[oltinchi xatboshi](#) beshinchi xatboshi deb hisoblansin;

b) [3-bandda](#):

"Yagona davlat suv fondi" so'zlari "ichimlik" so'zi bilan almashtirilsin;

"ta'minlash, respublikaning yagona suv balansini shakllantirish" so'zlari "hamda strategik zaxiralari yaratilishini ta'minlash" so'zlari bilan almashtirilsin;

v) [4-band](#) o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin;

g) [6-bandda](#):

[ikkinchi xatboshidagi](#) "Vazirlik" so'zi "Suv xo'jaligi vazirligi" so'zlari bilan almashtirilsin;

[uchinchi xatboshi](#) quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Kadastr agentligi, Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi, Gidrometeorologiya xizmati markazi va "O'zsvu ta'minot" AJ Yagona davlat suv fondining barcha suvlar turlariga nisbatan miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari to'g'risidagi hisob ma'lumotlarini tizimli ravishda Suv xo'jaligi vazirligiga taqdim etib boradi";

[to'rtinchi](#) va [beshinchi xatboshilardagi](#) "Vazirlik" so'zi "Suv xo'jaligi vazirligi" so'zlari bilan almashtirilsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi "Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6074-son [Farmonida](#):

a) 8-bandning [ikkinchi xatboshisida](#):

"aholi soni jami 15 mingdan kam bo'lmagan," so'zlari chiqarib tashlansin;

“ta’minlash” so’zidan keyin “va ularga oqova suv xizmatlari ko’rsatish” so’zlari bilan to’ldirilsin;

b) 12-bandning “b” kichik bandida:

uchinchi xatboshidagi “olinmagan” so’zi “olinganligi darajasi bo’yicha” so’zlari bilan almashtirilsin;

oltinchi xatboshi “ishlab chiqilishini” so’zlaridan keyin “va yangilab borilishini” so’zlari bilan to’ldirilsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-fevraldagi “Kommunal xizmatlar tariflarining asossiz ravishda o’sib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik hamda ular uchun o‘z vaqtida va to‘liq hisob-kitob qilinishi uchun iste‘molchilarning mas‘uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5-son qarorida:

a) 1-band va qarorga ilova o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

b) 4-band o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 19-iyundagi “Issiqlik ta’minoti va suv ta’minoti korxonalari xodimlarining mehnatini moddiy rag‘batlantirish mexanizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-655-son qarorida:

a) qaror nomlanishidan hamda 1, 2, 4 va 5-bandlardan “va suv ta’minoti” so’zlari chiqarib tashlansin;

b) 3-bandda:

birinchi xatboshidan “va suv ta’minoti” so’zlari chiqarib tashlansin;

ikkinchi xatboshidan “va suv” so’zlari chiqarib tashlansin;

v) rus tilidagi matnda 1 va 2-ilovalarning nomlanishidan “i vodosnabjeniya” so’zlari chiqarib tashlansin;

g) 3-ilovada:

ilovaning va III bob nomlanishidan, shuningdek 7, 9, 23-bandlardan va 29-bandning to‘rtinchi xatboshisidan “va suv ta’minoti” so’zlari chiqarib tashlansin;

1-banddan, 4-bandning to‘rtinchi xatboshisidan, 6-bandning ikkinchi xatboshisidan, VI bobning nomlanishidan va 28-bandning birinchi xatboshisidan “, suv ta’minoti va oqava suvlarni chiqarib yuborish” so’zlari chiqarib tashlansin;

2-banddagi “va suv bilan ta’minlash, shuningdek xo’jalik-maishiy oqava suvlarni tozalash” so’zlari “bilan ta’minlash” so’zlari bilan almashtirilsin;

10-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“10. Issiqlik ta’minoti korxonalarining ishchilari uchun mehnat haqi bo’yicha tarif setkasining boshlang’ich (birinchi) razryadi tarif stavkasini mazkur Nizomga muvofiq belgilash (o’zgartirish) ko’rsatilayotgan xizmatlar tariflarining o’sishiga olib kelmasligi kerak”;

11-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

11. Issiqlik ta’minoti korxonalarining ishchilari uchun mehnat haqi bo’yicha tarif setkasining boshlang’ich (birinchi) razryadi tarif stavkasi miqdori, mehnat organlari bilan kelishilgandan so’ng, issiqlik ta’minoti korxonasi rahbarining buyrug’i bilan tasdiqlanadi”;

12-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“12. Issiqlik ta’minoti korxonalarining ishchilari uchun mehnat haqi bo’yicha tarif setkasining boshlang’ich (birinchi) razryadi tarif stavkasi miqdori, qoidaga ko’ra, O’zbekiston Respublikasida belgilangan mehnatga haq to’lashning eng kam miqdori o’zgartirilishi munosabati bilan qayta ko’rib chiqiladi.

Ko’rsatilayotgan xizmatlar uchun belgilangan tartibda aniqlanadigan tariflarning o’zgarishi issiqlik ta’minoti korxonalarining ishchilari uchun mehnat haqi bo’yicha tarif setkasining boshlang’ich (birinchi) razryadi tarif stavkasining o’zgarishiga olib kelmaydi”;

13-bandning ikkinchi xatboshisidagi “energiyasi va suvni uzluksiz yetkazib berish, shuningdek xo’jalik-maishiy oqava suvlarni chiqarib yuborish va tozalashni ta’minlash” so’zlari “energiyasini uzluksiz yetkazib berishni ta’minlash” so’zlari bilan almashtirilsin;

V bob o’z kuchini yo’qotgan deb hisoblansin;

30-banddan “, suv ta’minoti, shuningdek xo’jalik-maishiy oqava suvlarni chiqarib yuborish va tozalash” so’zlari chiqarib tashlansin.

6. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi “O’zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko’rsatish vazirligi faoliyatini tashkil etish to’g’risida”gi PQ-2900-son qarorida:

a) 3-band “inspeksiyasi” so’zidan keyin “hamda Ichimlik suvidan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi” so’zlari bilan to’ldirilsin;

b) 3-bandning birinchi xatboshisi “O’zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko’rsatish vazirligi” so’zlaridan keyin “va

uning huzuridagi Ko'p xonadonli uy-joy fondidan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi" so'zlari bilan to'ldirilsin;

v) 4-bandning **ikkinchi xatboshidagi** "xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari" so'zlari "ko'p kvartirali uylarni boshqarish organlari" so'zlari bilan almashtirilsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "2017 — 2021-yillarda ichimlik suvi ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini kompleks rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish dasturi to'g'risida"gi PQ-2910-son **qarorida**:

a) **8-band** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"8. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida "Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish" jamg'armasi (keyingi o'rinlarda — Respublika jamg'armasi) hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari moliya bosh boshqarmalari huzurida suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish hududiy jamg'armalari (keyingi o'rinlarda — hududiy jamg'armalar) tashkil etilsin.

Mazkur jamg'armalar mablag'laridan:

suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini kompleks rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish dasturlarini (keyingi o'rinlarda — dasturlar) bajarish doirasidagi loyiha-qidiruv ishlarini;

dasturlar doirasida ichimlik suvi ta'minoti va kanalizatsiya tizimi obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilishni amalga oshirish hamda energiya tejoychi uskunalar va maxsus texnikalar xarid qilishni moliyalashtirishda foydalanilishi belgilansin";

b) **9-bandda**:

birinchi xatboshidagi "Jamg'arma" so'zi "Respublika jamg'armasi va hududiy jamg'armalar" so'zlari bilan almashtirilsin;

yettinchi xatboshidagi "Jamg'armaning" so'zi "Respublika jamg'armasi va hududiy jamg'armalarning" so'zlari bilan almashtirilsin;

v) **10-band** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"10. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi "Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish" jamg'armasi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari moliya bosh boshqarmalari huzuridagi suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish hududiy

jamg'armalari mablag'larini shakllantirish va foydalanish tartibi to'g'risidagi nizom 8-ilovaga muvofiq tasdiqlansin”;

g) 8-ilovada:

nomlanishi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi “Suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish” jamg‘armasi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari moliya bosh boshqarmalari huzuridagi suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish hududiy jamg‘armalari mablag‘larini shakllantirish va foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizom”;

1-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi “Suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish” jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda — Respublika jamg‘armasi) hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari moliya bosh boshqarmalari huzuridagi suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish hududiy jamg‘armalari (keyingi o‘rinlarda — hududiy jamg‘armalar) mablag‘larini boshqarish, shu jumladan Respublika va hududiy jamg‘armalar mablag‘larini shakllantirish, moliyalashtirish va ulardan foydalanishni nazorat qilish tartibini belgilaydi”;

2-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Respublika jamg‘armasi va hududiy jamg‘armalar Ichimlik suvi ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini kompleks rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish dasturini (keyingi o‘rinlarda — Dastur) moliyalashtirish uchun tashkil qilingan”;

3, 13, 15-bandlardagi “Jamg‘arma” so‘zi “Respublika jamg‘armasi va hududiy jamg‘armalar” so‘zlari bilan almashtirilsin;

4-bandda:

birinchi xatboshidagi “Jamg‘arma” so‘zi “Respublika jamg‘armasi va hududiy jamg‘armalar” so‘zlari bilan almashtirilsin;

yettinchi xatboshidagi “Jamg‘armaning” so‘zi “Respublika jamg‘armasi va hududiy jamg‘armalarning” so‘zlari bilan almashtirilsin;

5-banddagi “Jamg‘armaga” so‘zi “Respublika jamg‘armasi va hududiy jamg‘armalarga” so‘zlari bilan almashtirilsin;

6-banddagi “Jamg‘armaning g‘aznachilik hisob raqamlariga” so‘zlari “Respublika jamg‘armasi va hududiy jamg‘armalarning g‘aznachilik hisobvaraqlariga” so‘zlari bilan almashtirilsin;

7-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“7. Respublika jamg‘armasi va hududiy jamg‘armalarning mablag‘lari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G‘aznachiligi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Toshkent shahri bo‘yicha bosh boshqarmasi hisob-kitob kassa markazida ochiladigan g‘aznachilik hisobvaraqlarida jamlanadi”;

8-bandda:

birinchi xatboshidagi “Jamg‘arma” so‘zi “Respublika jamg‘armasi va hududiy jamg‘armalar” so‘zlari bilan almashtirilsin;

uchinchi xatboshi “rekonstruksiya qilish” so‘zlaridan keyin “, energiya tejevchi uskunalar va maxsus texnikalar xarid qilish” so‘zlari bilan to‘ldirilsin;

9-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“9. Respublika jamg‘armasi va hududiy jamg‘armalar mablag‘larini boshqarish O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasini moliyaviy tartibga solish departamentining “Suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi” mablag‘larini boshqarish bo‘limi tomonidan amalga oshiriladi”;

11-bandda:

“Jamg‘arma” so‘zi “Respublika jamg‘armasi va hududiy jamg‘armalar” so‘zlari bilan almashtirilsin;

“rivojlanish” so‘zi “ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish” so‘zlari bilan almashtirilsin;

14-bandning ikkinchi xatboshisidagi “Jamg‘armaga” so‘zi “Respublika jamg‘armasi va hududiy jamg‘armalarga” so‘zlari bilan almashtirilsin;

16-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“16. Respublika jamg‘armasi va hududiy jamg‘armalar mablag‘lari Moliya vazirligining axborot tizimida respublika va hududiy darajada ochilgan shaxsiy g‘azna hisobvaraqlaridan sarflanadi”;

17-bandda:

“Jamg’arma” so’zi “Respublika jamg’armasi va hududiy jamg’armalar” so’zlari bilan almashtirilsin;

“vazirligida” so’zidan keyin “va hududiy moliya organlarida” so’zlari bilan to’ldirilsin;

18-band “G’aznachiligi” so’zidan keyin “va uning hududiy boshqarmalari” so’zlari bilan to’ldirilsin;

19-bandda:

birinchi xatboshi “G’aznachiligi” so’zidan keyin “va uning hududiy boshqarmalari” so’zlari bilan to’ldirilsin;

uchinchi xatboshidagi “90” raqami “95” raqami bilan almashtirilsin;

to’rtinchi xatboshidagi “10” raqami “5” raqami bilan almashtirilsin;

25-bandda:

“Jamg’arma” so’zi “Respublika jamg’armasi va hududiy jamg’armalar” so’zlari bilan almashtirilsin;

“vazirligining Davlat moliyaviy nazorati departamenti hamda uning hududiy bo’linmalari” so’zlari “vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi” so’zlari bilan almashtirilsin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-maydagi “Jizzax viloyati aholisini sifatli ichimlik suvi bilan ta’minlashni yaxshilash chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3695-son qarori 1-bandining **“a” kichik bandidagi** “2018 — 2020” raqamlari “2018 — 2023” raqamlari bilan almashtirilsin.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyundagi “Ko’p kvartirali uy-joylarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish to’g’risida”gi PQ-5152-son **qarorida:**

a) 4-bandning **“b” kichik bandi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“b) 2023-yil 1-yanvardan boshlab mazkur qarorning 2-ilovasiga muvofiq ko’p kvartirali uy-joylarni mukammal va joriy ta’mirlesh ishlarini moliyalashtirish mazkur uy-joylarni ta’mirlesh ishlari umumiy smeta qiymati doirasida amalga oshiriladi, bunda mablag’larning:

30 foizi mulkdorlar hisobidan qoplanadi. Mazkur mablag’lar Uy-joy kommunal xizmat ko’rsatish vazirligi huzuridagi Uy-joy kommunal xo’jaligini rivojlantirish jamg’armasida ko’p kvartirali uy-joylarni ta’mirleshni moliyalashtirish uchun ochiladigan maxsus hisobvaraqa (keyingi o’rinlarda — Maxsus hisobvaraqa) shakllantiriladi;

35 foizi respublika budjetining qo'shimcha manbalari hisobidan qoplanadi;

35 foizi mahalliy budjetlarning qo'shimcha manbalari hisobidan qoplanadi”;

b) 12-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“12. Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligiga istisno tariqasida davlat xaridlari uchun o'rnatilgan tartib-taomillarni o'tkazmasdan sohani isloh qilish, shu jumladan billing tizimini ishlab chiqish, doimiy ekspluatatsiya qilish va rivojlantirib borish bo'yicha Kompleks ekspertiza qilish markazida ekspertizadan o'tkazmasdan to'g'ridan to'g'ri shartnomalar tuzishga ruxsat berilsin”.

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 25.05.2022-y., 06/22/140/0450-son)